

O‘ZBEKISTONNING QADIMGI TARIXIGA BIR NAZAR...

Mirzayev Nodir Shamsiddinovich

Samarqand viloyati Oqdaryo tumani

4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: tarix darslari orqali o‘quvchilar ongida vatanga muhabbat, mustaqillik va ozodlik g‘oyalarini singdirish, O‘zbekistonning qadimgi tarixi, topilmalar ushbu maqolada o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Qadimgi zamon, buyumlar, tarix, Avesto, sopol buyumlar, yozuvlar

Jahonda shaharlar va davlatlar paydo bo‘lgan davrlardan beri ming yillar o‘tdi. Ammo qadim zamonlarda odamlar yaratgan ko‘pdan ko‘p narsalardan bugun ham kundalik hayotda foydalanib kelinmoqda. Bu mehnat qurollari, sopol buyumlar, g‘ildirak, sopol suv quvurlari, gazlamalar, yozuv va boshqa ko‘pgina narsalardir. Qadimgi zamon mualliflari yozib qoldirgan asarlar hali-hanuz kishilarga saboq berib, tarbiyalab kelmoqda. Olimlar Yer yuzida qachonlardir ro‘y bergan voqealarni qaytadan tiklash uchun katta kuch-g‘ayrat sarflaganlar. Ular qadimgi shaharlarni topib tekshirishdi va charmga, sopolga, toshga, shuningdek, tangalarga bitilgan sirli yozuvlarni o‘qishdi. Siz endi arxeologik topilmalar nimalar haqida so‘zlab berishini bilasiz. Qadimgi bitiklarni o‘rganish bilan epigrafika, tangalarni o‘rganish bilan esa numizmatika degan maxsus fanlar shug‘ullanadi. Insoniyat sodda mehnat qurollarini yasashdan to hunarmandchilik durdonalarini yaratishga qadar, eng oddiy uy-joylarni qurib olishdan to shaharlarni bunyod etishga qadar uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Eng qadimgi shaharlar, yozuv, davlatlar tashkil topishi va rivojlanishi davrini olimlar ilk sivilizatsiya deb ataydilar. Dastlabki sivilizatsiyalar tarixi


Qadimgi Sharqda, soʻngra Yunonistondagi Krit orolida boshlangan Qadimiy yozuv namunasi edi. Qadimgi sivilizat siyalar jahonning koʻpgina oʻlkalarida Tarix bizni koʻp narsaga oʻrgatadi. Uni «**buyuk oʻqituvchi**» deb bejiz aytishmagan. Shu bois har birimiz oʻz Vatanimiz tarixini bilishimiz va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatiga hurmat bilan qarashimiz kerak. Geografik jihatdan Oʻzbekiston ancha katta hududni egallaydi. Amudaryo va Sirdaryo oraligʻi, Fargʻona, Zarafshon vodiylari va Surxondaryo vohasi oʻzining serhosilligi va iliq iqlimi tufayli uzoq qadimdayoq obod boʻlgan. Qulay geografik joylashuvga ega bu zamin Sharq va Gʻarb mamlakatlarini bogʻlab turgan. Bunda Oʻzbekistonning qadimgi shaharlari orqali oʻtgan Buyuk Ipak yoʻli nihoyatda katta ahamiyatga ega boʻlgan.



***Oʻrta Osiyoning yirik
ilm-fan markazi
boʻlgan Marv shahrida
(hozirgi
Turkmanistondagi
shahar) ijud qildi.***

Arxeologlar Surxondaryo vohasidan qadimgi ziroatchilar manzilgohlaridan biri boʻlgan Sopollitepani topishdi (Muzrabod tumani). Qazishmalar davomida bu yerdan xom gʻishtdan qurilgan uy-joylar, sopol buyumlar, bronzadan yasalgan mehnat qurollari va zeb-ziynatlar yasalgan ustaxona qoldiqlari, shuningdek, yirik xumlarda saqlangan bugʻdoy va arpa doni topilgan. Oʻzbekiston kishilik madaniyati tarixining eng qadimgi maskanlaridan

biridir. Surxon vohasida (hozirgi Sheroboddan uncha uzoq bo'lmagan joy) Jarqo'ton manzilgohi vujudga kelgan. Jarqo'ton qurilishi tarixida ilk shahar alomatlari ko'zga tashlanadi. U ikki qismdan iborat bo'lgan: qal'a va uning atrofi da jamoa a'zolari bo'lmish hunarmand va dehqonlarning uylari joylashgan. Jarqo'tonda ibodatxona qoldiqlari topilgan. Bronza davri manzilgohlari aholisi har xil hunarmandchilik, to'quvchilik, kulolchilikni rivoj toptirishda, zeb-ziynat buyumlarini yasash, qurilish sohasida katta yutuqlarga erishgan. Bronza davrida odamlar kulolchilik charxiva g'ildirakni kashf etdilar. Shu tariqa dastlabki aravalar vujudga kelgan. O'rta Osiyo jamiyati asosini tashkil etgan «nmana» – katta patriarxal oilasi haqida «Avesto»dan bilamiz. Bir necha «nmana»lar urug' jamoasi – «vis»ni tashkil etgan. Hududiy qo'shnichilik jamoasi esa «varzana» deb nomlangan. Bunday jamoalar qabilaga – «zantu»ga birlashgan. O'z hududini himoya qilish uchun bir qancha qabilalar ittifoqqa – «dax'yu»ga uyushishgan. O'rta Osiyoda temir asriga o'tish davrida jamiyatning tuzilishi shunday bo'lgan.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritilar ekan, ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitratning “Tarix millatning o‘tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rganuvchi fandır” degan fikrlari qadimgi tariximizdagi soliq tizimlarini o‘quvchiga o‘rgatish, bugungi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilib kelgan. Uzoq vaqt mobaynida davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan tarixiy va madaniy qadriyatlarni hamda o'ziga xos an'analarni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanov A.U. Dendrologiya. « O‘qituvchi», Toshkent. 2001.
2. H.Qobulova. O‘zbekiston tarixi fanidan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan mashq daftari. Qo‘llanma. Buxoro, 2021-yil
3. Qo‘shimcha ma’lumot uchun elektron manzillar: www.ziyonet.uz, www.istedod.uz
4. *Yuldashev, O. (2021). РАСЧЁТ СИЛОВЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ. НАУКА И МИР.*